

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI

Musayeva Shoira Azimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori

ORCID: 0009-0000-9577-6976

E-mail: musaeva_shoira@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Tailand va Qozog'istonda ayollar biznesini qo'llab-quvvatlashning institutsional, moliyaviy va innovatsion mexanizmlari o'rganilgan. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda kreditlash, mentorlik, raqamli texnologiyalar, biznes inkubatorlar va davlat dasturlarining ahamiyati baholangan. O'zbekistonda xizmatlar sohasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar hamda xorijiy tajribani milliy amaliyotga moslashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta'minlash va gender tengligini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, xizmatlar sohasi, kichik biznes, xorijiy tajriba, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsiya, mentorlik, gender tengligi.

Аннотация

В данной статье проанализирован передовой зарубежный опыт развития женского предпринимательства. В ходе исследования изучены институциональные, финансовые и инновационные механизмы поддержки женского бизнеса в Германии, Японии, Китае, Таиланде и Казахстане. Оценена роль кредитования, наставничества, цифровых технологий, бизнес-инкубаторов и государственных программ в развитии женского предпринимательства. Обоснованы возможности развития женского предпринимательства в сфере услуг Узбекистана и направления адаптации зарубежного опыта к национальной практике. Результаты исследования показали, что поддержка женского предпринимательства способствует повышению экономической активности, обеспечению занятости и укреплению гендерного равенства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, сфера услуг, малый бизнес, зарубежный опыт, финансовая поддержка, инновации, наставничество, гендерное равенство.

Abstract

This article analyzed advanced foreign experience in the development of women's entrepreneurship. The study examined institutional, financial, and innovative support mechanisms for women-owned businesses in Germany, Japan, China, Thailand, and Kazakhstan. The role of credit programs, mentoring systems, digital technologies, business incubators, and state support programs in the development of women's entrepreneurship was evaluated. The article substantiated opportunities for developing women's entrepreneurship in the service sector of Uzbekistan and adapting

international practices to national conditions. The findings showed that supporting women's entrepreneurship contributes to increasing economic activity, expanding employment, and strengthening gender equality.

Keywords: women's entrepreneurship, service sector, small business, foreign experience, financial support, innovation, mentoring, gender equality.

KIRISH

Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalalari turli darajalarda deyarli barcha mamlakatlarda uchraydi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash ayollarga o'z biznesini tashkil qilishda ularga yengilliklar berilishini nazarda tutadi. Mana shunday qo'llab-quvvatlashning vositalari sifatida mikrokreditlar berish (Fransiya, Ispaniya), ta'lim (Vengriya), ijtimoiy sug'urtalash jamg'armasiga bo'ladigan ajratmalarning pasayishi (Ispaniya) kabilarni aytish mumkin.

Turkiya, Janubiy Koreya va Slovakiya kabi mamlakatlarda ayollarning tadbirkorlikdagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Biroq, dunyoning taxminan 40 foiz mamlakatlarida, shu jumladan Shveysariya, Urugvay va Janubiy Afrikada, biznes sohasida ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlik kuchaymoqda.

Polshada ayollar tadbirkorligi sohasida ham sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda. Xususan, 2022-yilda Polsha 2024-yilga nisbatan umumiy reytingda 11 pog'ona yuqoriga ko'tarilib, 5-o'ringa yetgan (indeks qiymati 64,5 dan 68,9 ga oshgan). Bunda asosiy omillar sifatida tadbirkorlik faoliyatidagi gender tafovutini 25 foizdan 10 foizga qisqartirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni sezilarli darajada yaxshilash hamda tadbirkorlarning madaniy idrokini oshirish ko'rsatib o'tiladi. Uganda (34,8 %), Bangladesh (31,6 %) va Vyetnam (31,4 %) kabi past daromadli mamlakatlarda tadbirkorlar tarkibida ayollarning ulushi sezilarli. Ushbu mamlakatlarda ayollar tijorat faoliyatini imkoniyatlar sababli emas, balki zarurat tufayli boshlashadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va gender tengligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat oilaviy daromadlar oshadi, balki xizmatlar sohasi va kichik biznesning barqaror rivojlanishiga ham erishiladi [1]. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ayollarni biznesga jalb qilish uchun moliyaviy yordam, mentorlik, ta'lim va innovatsion platformalarni yaratish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda [2].

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida institutsional qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, ijtimoiy stereotiplar va ta'lim darajasi alohida qayd etilgan [3]. Achtenhagen va Brush ayollar biznesining muvaffaqiyatida ijtimoiy kapital va networking tizimi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [4]. Jennings va Lewis esa ayollar tadbirkorligi iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishiga xizmat qilishini ilmiy asoslab

bergan [5].

So‘nggi yillarda “Mastercard Index of Women Entrepreneurs” kabi xalqaro reytinglarda ayollar uchun qulay biznes muhiti yaratilgan davlatlar yuqori natijalarni qayd etmoqda [6]. Jumladan, Germaniya, Kanada va AQSH kabi mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun maxsus grantlar, imtiyozli kreditlar va innovatsion inkubatorlar faoliyat yuritmoqda [7]. Germaniyada “FRAUEN unternehmen” dasturi orqali ayollarga biznes boshlash, mentorlik va moliyaviy savodxonlik bo‘yicha keng ko‘lamli yordam ko‘rsatiladi [8]. Shu bilan birga, KfW banki tomonidan ayol tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi xizmatlar sohasida ayollar ulushining ortishiga xizmat qilmoqda [9].

Osiyo mamlakatlari tajribasi ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Xitoyda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kasanachilik va oilaviy biznesni rivojlantirish orqali ayollar bandligi oshirilmoqda [10]. Yaponiyada esa “Womenomics” siyosati doirasida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish va ish hamda oilaviy hayot muvozanatini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda [11]. Tadqiqotlarga ko‘ra, Yaponiya iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznes korxonalarining katta qismi ayollar ishtirokida faoliyat yuritadi [12].

Tailand va Qozog‘iston tajribasi ham ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini namoyon etadi. Tailandda raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning rivojlanishi ayollar biznesining kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan [13]. Qozog‘istonda esa “Damu” jamg‘armasi tomonidan mikromoliyalashtirish, grant va kredit liniyalari orqali ayollar tadbirkorligi rag‘batlantirilmoqda [14].

Mahalliy olimlar tomonidan ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari keng o‘rganilgan. Xususan, Kuvandikov Sh.O., Shadiyeva G.M., Musayeva Sh.A. va boshqa tadqiqotchilar xizmatlar sohasida oilaviy tadbirkorlik hamda ayollar biznesini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib bergan [15]. Ularning ilmiy ishlarida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali hududiy bandlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish mumkinligi qayd etilgan [16].

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional asoslar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda [17]. “Ayollar daftari”, “Tadbirkor ayol” jamg‘armasi va biznes inkubatorlari orqali xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan [18]. Biroq xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar uchun mentorlik tizimini kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion startaplarni moliyalashtirish kelgusida yanada yuqori natijalar berishi mumkin [19].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, marketing tahlili, taqqoslash va raqamli ko‘rsatkichlarni baholash usullari qo‘llanilgan. Ijtimoiy media platformalaridagi ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun ommaviy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar bizneslarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lganda, ular o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirish, belgilangan maqsadlariga erishish va shu orqali inklyuziv o‘sish jarayonini tezlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. “Tadbirkor ayollar indeksi” natijalari ishbilarmonlik muhiti eng qulay bo‘lgan mamlakatlarda “ixtiyoriy tadbirkorlik” darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Tadbirkorlikda ayollarning ulushi eng yuqori bo‘lgan davlatlar¹.

Davlatlar	Tadbirkorlikda ayollarning ulushi, foizda	Davlatlar	Tadbirkorlikda ayollarning ulushi, foizda
1. Uganda	34.8	6. Bangladesh	31.6
2. Botsvana	34.6	7. Vyetnam	31.4
3. Yangi Zelandiya	33.3	8. Xitoy	30.9
4. Rossiya	32.6	9. Ispaniya	30.8
5. Avstriya	32.4	10. AQSH	30.7

Tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, biznes yuritishda to‘siqlarni kamaytirish, kichik va o‘rta tadbirkorlikni rag‘batlantirish hamda yuqori sifatli tartibga solish mexanizmlarini yaratish zarurligi ta’kidlanadi. Ayollarga nisbatan mavjud madaniy stereotiplar sababli Hindiston (49-o‘rin, 41,7 ball), Saudiya Arabistoni (52-o‘rin, 37,2 ball) va Misr (53-o‘rin, 34,0 ball) kabi davlatlarda tadbirkor ayollar reytingi past bo‘lib, ularga yetakchilik mavqeyini egallash yoki bozor sharoitida biznes imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda asosiy to‘siqlar sifatida mablag‘ yoki venchur kapitalning yetishmasligi, qonunchilikdagi cheklovlar yoki samarasiz davlat institutlari, shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, ijtimoiy-madaniy cheklovlar, ma‘lumot yetishmasligi va o‘ziga ishonchsizlik ko‘rsatiladi. Tadqiq qilingan 54 mamlakatning deyarli barchasida ayollarning biznesni muvaffaqiyatli olib borishiga to‘sqinlik qiluvchi ushbu omillardan kamida bittasi mavjud.

“Heritage” (Meros) jamg‘armasi tomonidan “Wall Street Journal” bilan hamkorlikda “Iqtisodiy erkinlik indeksi - 2022” hisobotida mamlakatlarning indeks

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatkichlari va reytingidagi pozitsiyalarning o'zgarganligi to'g'risidagi natijalar e'lon qilindi. Iqtisodiy erkinlik indeksining "biznes erkinligi" ko'rsatkichida "ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi"ga oid subindikator ham mavjud. Mazkur hisobot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda iqtisodiy erkinlik indeksi 2021-yilga nisbatan 2,6 punktga kamayib, 55,7 birlikni tashkil etgan va natijada mamlakatning reytingdagi o'rni 108-pog'onadan 117-o'ringa tushgan. 2021-yilda mamlakatimizda "biznes erkinligi" indikatori 73,5 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 59,1 birlikka tushgan. Mazkur pasayish "ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi" subindikatorini darajasining ham kamayganini anglatadi. Bu holat esa ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston holati esa o'rta darajadagi ko'rsatkichlarga yaqin bo'lib, so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, xususan, ayollarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, biznes boshlash uchun grantlar ajratish, maxsus o'quv dasturlari tashkil etish orqali bu ko'rsatkichni sezilarli darajada oshirish istiqbollari mavjud. Shu nuqtai nazardan, ilg'or xorijiy tajribani, xususan, AQSH, Germaniya, Kanada, Xitoy, Yaponiya, Tailand hamda Qozog'iston kabi mamlakatlarning ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish O'zbekistonning xizmatlar sohasidagi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorij tajribasini o'rganayotib barcha mintaqalarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosatida ayollar va yoshlar kategoriyasi yetakchi o'rin egallashi ma'lum bo'ldi. Alohida davlatlardagi holatni ko'rib chiqishda, avvalo

Germaniya tajribasini yoritishni lozim topdik. Germaniya iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar orasida ayollar tadbirkorligi borasida samarali siyosat yuritayotgan davlatlardan biri sanaladi. Xususan, xizmatlar sohasida ayollar ishtirokining oshirilishi Germaniya gender tengligini iqtisodiy muvozanat bilan uyg'unlashtirishga erishgan kam sonli Yevropa davlatlaridan biridir. Avvalo, Germaniya hukumati ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda institutsional infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Masalan, Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK) tomonidan ishlab chiqilgan "FRAUEN unternehmen" (Ayollar tadbirkorlikda) dasturi ayollarni xizmatlar sohasida biznes boshlashga rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tashabbus doirasida ayollarga mentorlik, tarmoq yaratish (networking), biznes yuritish bo'yicha bepul maslahatlar va moliyaviy savodxonlik kurslari taqdim etiladi⁶². Shuningdek, ayollar uchun moslashtirilgan moliyaviy mexanizmlar ham Germaniyada xizmatlar sohasida tadbirkor ayollar sonining ortishiga turtki bo'lmoqda. Jumladan, KfW Bankengruppe (Germaniya taraqqiyot banki) orqali kichik biznes bilan shug'ullanayotgan ayollarga imtiyozli kreditlar va grantlar ajratiladi. 2022-yilda KfW tomonidan berilgan yangi biznes

kreditlarining 38 foizi ayollar rahbarligidagi korxonalariga to‘g‘ri kelgan ⁶³. Germaniyada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning yana bir muhim jihati bu innovatsion inklyuziv ta‘lim tizimi hisoblanadi. Masalan, “EXIST - Business Start-up Grant” dasturi orqali universitetni tugatgan ayollar, ayniqsa STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalarida o‘z bizneslarini boshlash uchun zarur bilim va dastlabki kapital bilan ta‘minlanadi⁶⁴. Germaniyada xizmatlar sohasida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlovchi omillardan yana biri - ijtimoiy muhit va oilaviy ish-hayot muvozanatini ta‘minlovchi siyosatlardir. Masalan, bolali tadbirkor ayollar uchun moslashtirilgan ish grafigi, bolalar bog‘chalari tarmog‘ining kengligi va ijtimoiy yordam dasturlarining mavjudligi ularga xizmatlar sohasida faol bo‘lish imkonini

beradi. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu borada institutsional qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy imtiyozlar, innovatsion ta‘lim va genderga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatlar muvozanatli tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonda ham xizmatlar sohasida ayol tadbirkorlar uchun qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Germaniya va O‘zbekiston tajribalarining farqli jihatlari: institutsional, ijtimoiy va innovatsion mezonlar asosida qiyosiy tahlil¹

Ko‘rsatkich	Germaniya tajribasi	O‘zbekiston tajribasi
Tadbirkorlik madaniyati	Yevropaga xos mustaqil qaror qabul qilish, individual tashabbus ko‘rsatish kuchli.	An’anaviy jamiyatda ayollar ko‘proq oilaviy mas’uliyatda, tashabbus nisbatan sustroq.
Ijtimoiy infratuzilma	Keng tarmoqli bolalar bog‘chalari, fleksib ish grafigi mavjud.	Bolalar bog‘chalari soni yetarli emas, ish joylarida fleksib tizim kam joriy etilgan.
Texnologik salohiyat va innovatsiyalar	Raqamli xizmatlar, startaplar, STEM sohasida ayollar ishtiroki yuqori.	STEM va innovatsion xizmatlar sohasida ayollar ishtiroki hanuz past.
Mentorlik va tarmoqlanish imkoniyatlari	Professional mentorlik va tarmoq dasturlari tizimli.	Tarmoq va mentorlik tizimi endigina shakllanmoqda.
Davlat va xususiy sektor integratsiyasi	Davlat va xususiy sektor hamkorligi kuchli: Grantlar, IT markazlar, akseleratorlar.	Davlat ko‘proq yetakchi rol o‘ynaydi, xususiy sektor faolligi cheklangan.

¹ Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston va Germaniya tajribasining umumiy jihatlari:

- *Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga davlat darajasida e’tibor*: Har ikkala davlatda ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. O‘zbekistonda bu borada “Ayollar daftari”, “Biznes ayol” uyushmasi, “Tadbirkor ayol” jamg‘armasi orqali amaliy chora-tadbirlar

ko‘rilmoqda. Germaniyada esa BMWK kabi federal tashkilotlar doirasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

- *Moliyaviy ko‘mak dasturlari mavjudligi*: O‘zbekistonda ham ayol tadbirkorlar uchun kreditlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari mavjud. Bu jihatdan u Germaniyaning KfW dasturiga yaqinlashmoqda.

- *Ta’lim va maslahat xizmatlari orqali qo‘llab-quvvatlash*: Germaniyada EXIST va FRAUEN unternehmen dasturlari, O‘zbekistonda esa biznes inkubatorlar, “Ishbilarmon ayol” seminar-treninglari mavjud bo‘lib, ayollarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Germaniya tajribasidan O‘zbekiston uchun o‘rganilishi mumkin bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlar quyidagilardir:

- Ayol tadbirkorlar uchun moslashtirilgan mentorlik va networking dasturlarini joriy etish;

- Bolali ayollar uchun moslashuvchan ish grafigi va oilaviy infratuzilmani kengaytirish;

- STEM va IT xizmatlarida ayollar ishtirokini oshirish bo‘yicha maxsus grant va ta’lim dasturlarini yaratish;

- Davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik platformalarini shakllantirish.

Xitoy modeli zamonaviy rivojlanishning yorqin fenomenidir. Keyingi yillar davomida xitoyliklarning turmush darajasi 9 martaga oshdi. Ayollarning bandlik darajasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi hamda u kasanachilik faoliyati bilan uyg‘un tarzda rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ayollar kasanachiligini rivojlantirishda davlat darajasida besh yillik dasturlar samarali ishlaydiki, bu nafaqat shaharda balki shahar atrofida istiqomat qiluvchi ayollar uchun samarali ish bilan bandlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoning ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlari ham tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash va Jahon bankining “Doing Business” tashabbusiga javoban sa’y-harakatlarni kuchaytirish bo‘yicha muhim islohotlarni

amalga oshirmoqdalar. Aholi esa qashshoqlikdan qutulish va kambag‘allikni qisqartirish uchun eski iqtisodiy an‘analardan voz kechib, o‘z bizneslarini boshlashga kirishmoqda. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda aynan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xususan, quyi bo‘g‘ingacha etib borgan holda ularni qo‘llab-quvvatlash mavzusi hukumat va jamiyat tomonidan e’tibordan chetda qolib ketmoqda edi. Mazkur

mamlakatlardagi yana bir hususiyat shuki, qishloq joylardagi tadbirkor ayollarning aksariyati uyushmagan, ro'yxatdan o'tmagan va norasmiy faoliyat yuritadi va natijada kamroq qo'llab-quvvatlanadi va deyarli vakolatlarga ega emas. SHunga qaramay, rivojlanayotgan mamlakatlarda oxirgi paytlarda kuzatilayotgan ijobiy tendentsiya mavjud tizimning o'rganishga arziqli jihatlari borligini isbotlaydi.

Yaponiya iqtisodi butunlay boshqacha taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, ya'ni AQSHdan farqli o'laroq kichik biznesga emas, yirik sanoat korxonalariga katta e'tibor qaratilgan. SHunday bo'lsada hozirda YAponiyadagi kichik va o'rta tadbirkorlik mamlakat YAIMida katta ulushga ega, ushbu sektor korxonalarining 99,7 foizini, bandlikning deyarli 70 foizini va qo'shilgan qiymatning 53 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatda 2013 yilda "Womenomics"(women - ayollar, economics - iqtisodiyot) joriy etilgandan boshlab xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi o'rni masalasi ham ustuvor vazifalar qatoriga kirdi. Womenomics YAponiyada nafaqat adolat va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun gender tengligini ta'minlash va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan siyosatlar to'plamini taqdim etadi. Ta'kidlash joizki, YAponiya hukumati xodimlarning ishi va shaxsiy hayoti o'rtasida muvozanat yo'qligini, mehnat bozorining keskin prinsiplari va umrbod bandlikning salbiy ta'sirini tan oladi va doimo muvozanatni tiklash yo'llarini izlaydi.

Ayollar ish joylarida kamsitish va bosimdan qutulish, oila va ish o'rtasidagi muvozanatni topish, qaramog'idagi oila a'zolarini boqish uchun tadbirkorlikni, jumladan, ijtimoiy foydali faoliyatni tanlamoqdalar. Mavjud to'sqinliklar va yetishmayotgan imkoniyatlar natijasida xotin-qizlarning biznes faoliyati erkaklarga nisbatan qiyinroq sharoitlarda yuzaga kelmoqda. Pirovardida, ayollar hayotning turli jabhalarida faol bo'lish bilan tezkor boshqaruvchilik va taym menejment qobiliyatlari kuchliligini ko'rsatib, ular yuritayotgan biznes esa 3 yildan so'ng yanada samarali faoliyat yuritib ketishini isbotlashmoqda.

Yaponiya qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik vazirligiga tegishli qishloq xo'jaligida ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish dasturlari kabi bir qator tashabbuslar mavjud. Bundan tashqari, xususi sektorida faoliyat yuritayotgan muvaffaqiyatli va nufuzli biznes yetakchilarining tashabbuslari ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. DBJ tajribasi bunga misol bo'la oladi. DBJ Ayollar tadbirkorlik markazi taniqli yapon ishbilarmon ayoli, xotin-qizlar huquqlari bo'yicha faol Ketu M. Matsui tomonidan yaratilgan. Markaz 2011 yildan beri (Womenomics ishga tushirilishidan 2 yil oldin) yapon ayollari uchun grantlar, konsultatsiya, o'quv kurslari, mentorlik, moliyalashtirish va tarmoq yaratish kabi masalalarda ko'maklashadi. DBJ dasturlari bo'yicha ma'lumotlar, hisobotlar va videodars kabilarni onlayn kuzatib borish mumkin. Biroq, xususi tashabbuslar

mamlakat ko‘lamidagi salmoqli o‘zgarishlar uchun yetarli bo‘lmayapti. Tailandda ayollar tadbirkorligi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Jahon Bankining 2023-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda kichik va o‘rta biznes subyektlarining qariyb 50 foizi ayollar tomonidan boshqariladi, bu esa

ASEAN davlatlari orasida yuqori ko‘rsatkichlardan biridir.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo‘lmoqda, jumladan:

Ta‘lim darajasining oshishi - ayollar orasida oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlar soni ortib bormoqda;

Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi - elektron tijorat va onlayn xizmatlar orqali ayollar biznes yuritishda faolroq ishtirok etmoqda;

Davlat siyosati - Tailand hukumati ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, grantlar va trening dasturlarini yo‘lga qo‘ygan.

Biroq, bu rivojlanish bilan birga, qator muammolar ham mavjud. Jumladan: ayollar moliyaviy resurslarga erkaklarga nisbatan kamroq kirish imkoniyatiga ega, patriarxal madaniyat tufayli ayrim hududlarda ayollarning iqtisodiy faolligi cheklanmoqda, tadbirkorlik sohasida zarur ko‘nikma va mentorlik tizimining yetishmasligi seziladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Tailandda ayollar boshchiligidagi bizneslar ko‘proq xizmatlar va chakana savdo sektorida to‘plangan bo‘lib, ular innovatsion faoliyatda erkaklarnikiga qaraganda pastroq darajada qatnashmoqda. Buni kamaytirish uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan UN Women, ayollarni innovatsion startaplar va texnologik tadbirkorlikka jalb etish maqsadida maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Tailandda ayollar tadbirkorligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlash gender tengligi, kambag‘allikni kamaytirish va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda asosiy vositadir.

Qozog‘istonda ayollar umumiy aholining 51 foizini, band aholining esa qariyb yarmi- 49 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, xotin-qizlar tadbirkorligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 39 foizni tashkil qilmoqda. Qozog‘istonda ayollar tadbirkorligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Ushbu jarayonda davlat siyosatini faol amalga oshiruvchi institut sifatida “Bayterek” xoldingiga qarashli “Damu” tadbirkorlikni rivojlantirish jamg‘armasi alohida o‘rin tutadi. Mazkur jamg‘arma qozog‘istonlik ayollarga o‘z biznesini tashkil etish va rivojlantirish uchun zaruriy yordamni taqdim etadi. So‘nggi

o‘n yillikda ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamg‘arma faoliyatida asosiy instrumentlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Ayollar tadbirkorligini mikromoliyalashtirishni kengaytirish maqsadida mablag‘larni ikkilamchi banklarga shartli ravishda joylashtirish dasturi;

- Ayollar tadbirkorligini mikromoliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mablag'larni tijorat banklariga shartli asosda joylashtirish dasturi;
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (European Bank for Reconstruction and Development, EBRD) tomonidan amalga oshirilayotgan "Ayollar biznesda" dasturi;
- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan "Biznes yo'l xaritasi - 2025" tashabbusi;

Mazkur tashabbuslar doirasida Jamg'arma tomonidan moliyaviy ko'mak olgan tadbirkorlarning umumiy sonida ayollar ulushi 57,6 foizni tashkil etadi.

Qator xorij mamlakatlarining ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashdagi tajribalarni ko'rib chiqib, ulardan O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari quyidagi 3-jadvalda sanab o'tildi.

3-jadval

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Osiyo mamlakatlari tajribasini O'zbekistonga tatbiq qilish imkoniyatlari¹

Mamlakatlar	Amaldagi ilg'or mexanizmlar va institutlar	O'zbekiston sharoitida transfer qilish mumkin bo'lgan komponentlar
Xitoy	Kichik biznes va kasanachilikni iqtisodiy rivojlanish omili sifatida integratsiyalashgan holda, davlat tomonidan tizimli tarzda qo'llab-quvvatlanishi.	Uy mehnatiga asoslangan ayollar tadbirkorligini institutsionallashtirish, mahalliy darajada ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirish, kasanachilik klasterlarini shakllantirish.
Yaponiya	DBJ (Development Bank of Japan) ko'magida grantlar, konsalting, mentorlik va tarmoqlashuv mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.	Gender-iqtisodiy siyosat doirasida ayollarga qaratilgan moliyaviy va axborot platformalarini yaratish, mentorlik institutini rivojlantirish hamda biznes startaplarini qo'llab-quvvatlash uchun grantlar va maslahat xizmatlari tizimini shakllantirish zarur.
Uganda	Hukumati tomonidan imtiyozli soliq siyosati, o'quv-trening dasturlari,	Raqamli savodxonlikni oshirish orqali ayollarni texnologik tadbirkorlikka jalb etish, elektron savdo va xizmat ko'rsatish sohasini
Tailand	innovatsion startaplar uchun grantlar yo'lga qo'yilgan.	Rivojlantirishda gender tenglik siyosatini kuchaytirish, startaplar uchun grantlarni rivojlantirish.
Qozog'iston	"Damu" jamg'armasi tomonidan moliyaviy vositalar orqali (mikrokredit, ADB va EBRD kredit liniyalari) ayollar Tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash.	Ayollar uchun maxsus moliyaviy instrumentlarni (kredit, grant, subsidiya, kafolat) shakllantirish; xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda genderga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni rivojlantirish.

¹ Muallif tomonidan shakllantirildi.

Quyidagi jadvalda biznes vakillari uchun uzoq yillardan beri liberal muhit yaratib bera olgan, kelib chiqishi, iqtisodiy holati turlicha bo‘lgan aholi yashovchi va bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qiluvchi hamda mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatga birmuncha yaqin bo‘lgan Osiyo Mamlakatlari tajribasini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi.

Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish natijalariga tayanib, O‘zbekistonda xizmatlar sohasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional infratuzilmani kuchaytirish zarur. Shu maqsadda ayollar tadbirkorligi masalalarini yagona markazda muvofiqlashtiruvchi “Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish agentligi”ni tashkil etish, uning faoliyatini “Tadbirkor ayol” jamg‘armasi, “Biznes ayol” uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi va oliy ta’lim muassasalari bilan uzviy integratsiyada yo‘lga quyish;

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini diversifikatsiya qilish. Ayollar rahbarligidagi kichik biznes sub’yektlari uchun alohida kredit liniyalari, startap grantlari va kafolat fondlarini yaratish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda ayollar uchun sarmoyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish;

3. Ta’lim va mentorlik tizimini mustahkamlash. Oliy ta’lim muassasalari huzurida “Ayollar innovatsion startap inkubatori”ni tashkil etish, ayollar uchun biznes boshqaruvi, marketing va moliyaviy savodxonlik bo‘yicha maxsus bepul kurslar tashkil etish. Shuningdek, muvaffaqiyatli tadbirkor ayollarni yosh boshlovchi tadbirkorlarga mentor sifatida jalb etish;

4. “Women Digital Hub” ayollar uchun raqamli innovatsiya markazlari tarmog‘ini yaratish. “Women Digital Hub” - bu ayollar uchun raqamli ta’lim, e-commerce laboratoriyasi, marketing, dizayn va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etuvchi kompleks platforma bo‘ladi.

O‘zbekiston uchun ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi endi faqat iqtisodiy yo‘nalish sifatida emas, balki milliy innovatsion rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur. Bu yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan siyosiy, tashkiliy va ta’limiy chora-tadbirlar natijasida ayollar nafaqat iqtisodiy o‘sish jarayonida faol ishtirokchi, balki raqamli iqtisodiyotning yetakchi drayverlaridan biriga aylanishi mumkin. Ushbu tavsiyalar O‘zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, xizmatlar sohasida gender tenglikni kuchaytirish hamda iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini

ta'minlash, xizmatlar sohasini kengaytirish va aholi bandligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi, xususan Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Tailand va Qozog'iston amaliyoti ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda institutsional mexanizmlar, moliyaviy yordam, mentorlik tizimi hamda innovatsion ta'lim dasturlari yuqori samaradorlik berishini tasdiqlaydi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ayollar uchun qulay biznes muhiti yaratilgan mamlakatlarda iqtisodiy faollik, xizmatlar sifati va kichik biznesning raqobatbardoshligi yuqori darajada shakllangan. Shu bilan birga, ayrim davlatlarda mavjud ijtimoiy stereotiplar, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi cheklovlar va innovatsion ko'nikmalarning yetarli emasligi ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, imtiyozli kreditlar, grant dasturlari, "Ayollar daftari", "Tadbirkor ayol" jamg'armasi hamda biznes inkubatorlar faoliyati ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq xizmatlar sohasida ayollar ishtirokini yanada kengaytirish, ularning innovatsion va raqamli iqtisodiyotdagi faolligini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan yagona institutsional tizimni shakllantirish va uning faoliyatini davlat hamda xususiy sektor hamkorligida tashkil etish zarur.

2. Ayol tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli kredit liniyalari, startap grantlari va kafolat fondlarini kengaytirish orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

3. Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar uchun biznes boshqaruvi, marketing, elektron tijorat va moliyaviy savodxonlik bo'yicha bepul amaliy o'quv dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Ayollarni innovatsion tadbirkorlikka jalb etish maqsadida STEM, IT va raqamli texnologiyalar yo'nalishida maxsus ta'lim va mentorlik dasturlarini rivojlantirish zarur.

5. Hududlarda ayollar biznesini rivojlantirish uchun zamonaviy biznes inkubatorlar, coworking markazlari va "Women Digital Hub" platformalarini tashkil etish tavsiya etiladi.

6. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning ilg'or xorijiy tajribalarini milliy amaliyotga moslashtirish lozim.

7. Ayollarning oilaviy va kasbiy faoliyati o'rtasida muvozanatni ta'minlash maqsadida moslashuvchan ish tizimi, ijtimoiy infratuzilma va bolalar parvarishi xizmatlarini kengaytirish zarur.

Mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi xizmatlar sohasida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy samaradorligini oshirish, gender tengligini mustahkamlash hamda mamlakatning inklyuziv iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.T.: lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2022-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.:O'zbekiston, 2024-46 b.

3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabr O'RQ-886-son davlat budjeti to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6707765>

4. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabr O'RQ-598-son "Investisiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>

5. Kuvandikov Sh.O. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik [Matn]: monografiya / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 — 276 bet.

6.Pardayev M.Q., Shadiyeva.G.M., Kuvandikov Sh.O. va boshqalar. Oilaviy korxonalar faoliyati tahlili. Monografiya. T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi" 2024 yil.360 bet.

7. Shadiyeva.G.M. Oila xo'jaligi: mulki, daromadlari va tadbirkorligi. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti. 2023. 190 bet.

8. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023

9. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarqand -2022.

10. <http://www.uza.uz> (O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi)



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**